



## SOCIAL FACTORS OF VIRTUAL ENTREPRENEURSHIP IN THE CONDITIONS OF REFORMS

*Sobirjon Kozokov*

*PhD, etc. associate professor*

*Namangan State University*

*Uzbekistan, Namangan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Social changes, entrepreneurship, virtual entrepreneurship, counterparty, electronic technologies, digital economy, labor resources, hidden economy, digitization of the population, diversification, subsidy, customer, global network, cyberspace, services market.

**Received:** 26.08.24

**Accepted:** 28.08.24

**Published:** 30.08.24

**Abstract:** The article analyzes the social factors of virtual entrepreneurship in the context of reforms in our country. The author explains the concept of virtual entrepreneurship, its functions, elements and social factors affecting it. In particular, the author pays special attention to the formation and development of virtual business activities in the conditions of the transition to the digital economy in our country.

Also, the role of virtual entrepreneurship in the social structure of the society and its importance in improving the socio-economic life are studied in the article.

## ISLOHOTLAR SHAROITIDA VIRTUAL TADBIRKORLIKNING IJTIMOY OMILLARI

*Sobirjon Qozoqov*

*PhD., dotsent v.b.,*

*Namangan davlat universiteti*

*O'zbekiston, Namangan*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** Ijtimoiy oʻzgarishlar, tadbirkorlik, virtual tadbirkorlik, kontragent, elektron texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, mehnat resurslari, yashirin iqtisodiyot, aholining raqamlashtirish, diversifikatsiya, subsidiya, mijoz, global tarmoq, kiber makon, xizmatlar bozori.

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakatimizdagi islohotlar sharoitida virtual tadbirkorlikning ijtimoiy omillari tahlil qilingan. Muallif virtual tadbirkorlik tushunchasi, uning funktsiyalari, elementlari va unga taʼsir etuvchi ijtimoiy omillar yoritib berilgan. Ayniqsa, muallif mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga oʻtish sharoitida virtual tadbirkorlik faoliyatini shakllanishi va rivojlanishiga alohida eʼtibor qaratilgan.

Shuningdek, maqolada virtual tadbirkorlik faoliyatining jamiyat sotsial strukturasi tutgan o'rnini, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yuksaltirishdagi ahamiyati ham o'rganilgan.

## СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ВИРТУАЛЬНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УСЛОВИЯХ РЕФОРМ

*Собиржон Казаков*

*PhD., и.д.доцент*

*Наманганский государственный университет*

*Узбекистан, Наманган*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Социальные изменения, виртуальное контрагент, цифровая скрытая экономика населения, заказчик, киберпространство, рынок услуг, виртуальное предприятие, электронные технологии, трудовые ресурсы, экономика, цифровизация, диверсификация, глобальная сеть, виртуальное предприятие.

**Аннотация:** В статье анализируются социальные факторы виртуального предпринимательства в контексте реформ в нашей стране. Автор объясняет понятие виртуального предпринимательства, его функции, элементы и влияющие на него социальные факторы. В частности, автор уделяет особое внимание становлению и развитию виртуальной предпринимательской деятельности в условиях перехода к цифровой экономике в нашей стране.

Также в статье изучается роль виртуального предпринимательства в социальной структуре общества и его значение в улучшении социально-экономической жизни.

### KIRISH

Globalashuv sharoitida jahon hamjamiyatida bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlar tadbirkorlik faoliyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu esa, tadbirkorlik faoliyatining ko'p qirralarini ochib bermoqda va shu orqali tadbirkorlik faoliyatining yangi ko'rinishlari, ya'ni virtual tadbirkorlik faoliyati vujudga kelmoqda. Bu tadbirkorlik faoliyatining XXI asrda vujudga kelgan yangi ko'rinishi bo'lib, uni shakllantirish va rivojlantirish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham virtual tadbirkorlik faoliyatini ijtimoiy omillarini o'rganish doirasida ilmiy izlanishlar olib borish belgilangan. Tadqiqotdan ko'zlangan maqsad O'zbekistonda virtual tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy omillarini ilmiy tahlil etish hisoblanadi.

Virtual tadbirkorlik faoliyatini ijtimoiy omillarini o'rganishning dolzarbligi qator obyektiv sabablar bilan xarakterlanadi. Birinchidan, mazkur muammoni O'zbekiston hududida sotsiologiya fani doirasida kam o'rganilganligi virtual tadbirkorlik faoliyatini tadqiq etishga chorlaydi. Ikkinchidan, tadqiqot natijalari O'zbekistondagi virtual tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan

qo'llab-quvvatlashda qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Uchinchidan, virtual tadbirkorlik faoliyatini shakllanishi va uni rivojlanishi mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonlarini izchil va mukammal amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. To'rtinchidan, izlanish doirasida virtual tadbirkorlik faoliyatini o'rganish, mohiyatini tahlil qilish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash imkonini beradi.

### ASOSIY QISM

Mamlakatimizdagi islohotlar sharoitida virtual tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, hozirgi o'zgarishlar sharoitida tadbirkorlik faoliyatining bu ko'rinishi orqali, jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish, talab va taklifni muvofiqlashtirish jarayonlarida muhim ahamiyatni kasb etadi. Shu sababdan ham XXI asrda jahon hamjamiyatida virtual tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochib berilmoqda. Bu o'z navbatida, jahon iqtisodiyotining yuqori tezlikda o'sishini ta'minlash bilan bir qatorda globallashtirish sharoitida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli iqtisodiy inqirozlar oldini olishga ham xizmat qiladi.

Shuning uchun ham mamlakatimizda virtual tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Prezident S. Mirziyoyev virtual tadbirkorlikni rivojlantirishning afzalliklari to'g'risida quyidagicha fikr bildirgan edi: Hukumat tomonidan bozorda teng raqobat muhitini yaratish va halol-pok tadbirkorlarni, – takror aytaman – zamonaviy texnologiyalar asosida ishlayotgan vijdonli tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirishga qaratilgan mexanizmlar joriy etiladi [1.]. Bu esa, mamlakatimizni jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lishga ko'maklashish bilan birga, xorijiy investorlarga jazibadorlikni ham taqdim etadi.

Virtual tadbirkorlik faoliyatining ijtimoiy omillariga – aholining raqamlashtirish jarayonida ishtirok etishga tayyorligi, aholining texnik savodxonligi va boshqalarni kiritamiz.

Bundan tashqari, ushbu omillarning diversifikatsiyalanganligini ta'kidlab o'tish lozim. Ular ijobiy xarakterga ega bo'lib, raqamli transformatsiyaga o'zining hissasini qo'shadi. Masalan: raqamli texnologiyalarni rivojlantirish uchun maxsus dasturlarni yaratish, subsidiyalar ajratish va turli xil ushbu sohada faoliyat yurituvchi kompaniyalarga imtiyozlar berish va boshqalar [3].

Hozirgi o'zgarishlar sharoitida virtual tadbirkorlik faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'lganligi uchun rivojlangan mamlakatlarning olimlari tomonidan unga quyidagicha ta'rif berilgan.

Virtual tadbirkorlik - mijozlar va tadbirkorlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun kontragent (sharik, hamkor) lar bilan aloqa o'rnatish uchun elektron texnologiyalardan

foydalangan holda biznesni yuritish uchun asosiy vakolatlar va tegishli manbalarning yig'indisi hisoblanadi [4].

Bundan ko'rinib turibdiki, virtual tadbirkorlik faoliyati quyidagi hodisalarni o'z ichiga qamrab oladi:

- virtual bozor - global tarmoqlarning (Internet) aloqa va axborot imkoniyatlari asosida mavjud bo'lgan tovarlar va xizmatlar bozori;

- virtual haqiqat, yahni ham vosita, ham atrof-muhit bo'lgan kiber kosmosdagi real ishlanmalar va ishlab chiqarishni namoyish etish va taqlid qilish;

- virtual (tarmoq) tashkiliy shakllar.

Darhaqiqat, mamlakatimizda islohotlar sharoitida virtual tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yilishi bevosita raqamli iqtisodiyotni rivojlanishiga turtki bo'ladi. Chunki, globallashtirish sharoitida jahon mamlakatlarining iqtisodiy salohiyatini virtual tadbirkorlik faoliyati belgilab bermoqda. Bu esa, tadbirkorlik faoliyatining bu ko'rinishida zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishni talab etadi. Buning quyidagi afzallik tomonlari mavjuddir:

- bozor buyurtmalarini bajarish tezligi;

- umumiy xarajatlarni kamaytirish imkoniyati;

- mijozning ehtiyojlarini yanada to'liq qondirish imkoniyati;

- atrof-muhit o'zgarishiga moslashish imkoniyati;

- yangi bozorlarga kirish uchun to'siqlarni kamaytirish qobiliyati.

Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablar va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi [2].

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotga o'tishda virtual tadbirkorlik faoliyatining o'rni katta bo'lib, davlat tomonidan uning rivojlanishi uchun yetarli sharoitlar yaratib berilmoqda. Buning natijasida, tadbirkorlik faoliyatida yangi atamalar paydo bo'la boshladi. Bu atamalarga treyder, kriptovalyuta, monetizatsiya, elektronhamyon va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Treyder - mustaqil harakat qilib, internetda savdo faoliyat yuritib foyda olishga intilayotgan shaxs.

Kriptovalyuta - bu raqamlashtirilgan tizimda faoliyat yuritadigan nomarkazlashtirilgan to'lov tizimi tomonidan ta'minlanadigan raqamli valyutaning bir ko'rinishi.

Monetizatsiya - tadbirkorlik faoliyati orqali foyda topishning yangi sohalarini aniqlash va uni amalga oshirish jarayoni.

Elektron xamyon - raqamlashtirilgan pul bo'lib, onlayn sotish va sotib olish to'lovlarini amalga oshirish to'lovlarini amalga oshirish imkonini beruvchi elektron 'ul birligi hisoblanadi.[5.]

Virtual tadbirkorlik tadbirkorlarning yangi tashkiliy shakllaridan biri bo'lib, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarishning yangi shakllarini rivojlantirishga zamonaviy bozorlarning rivojlanish tendentsiyalari, bozorlar globallasuvi, tovarlar sifatining o'sib borayotgan ahamiyati, ularning narxlar va mijozlar ehtiyojlari darajasi, iste'molchilar bilan barqaror munosabatlarning tobora muhim ahamiyati va yangi axborotni qo'llash darajasi o'sib borayotgan ahamiyatiga aloqa texnologiyalari yordamida ta'sir ko'rsatadi.

### XULOSA

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida virtual tadbirkorlik faoliyatining o'rni kattadir. Chunki, raqamli texnologiyalar nafaqat tadbirkorlar tomonidan taqdim etilayotgan mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, jamiyatdagi og'ir illat hisoblangan – korruptsiya balosini yo'qotishda ham samarali vositadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ш.Мирзиёев “Олий Мажлисга Мурожаатномаси” <https://president.uz/uz/lists/view-4057>
2. Ш.Мирзиёев “Олий Мажлисга Мурожаатномаси” <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
3. Стратегия цифровой трансформации: написать, чтобы выполнить / С.83 под ред. Е. Г. Потаповой, П. М. Потеева, М. С. Шклярук. - М.: РАНХиГС, 2021. — 184 с.
4. Виртуальное предпринимательство как объект психологического исследования. <https://cyberleninka.ru/article/n/virtualnoe-predprinimatelstvo-kak-obekt-psihologicheskogo-issledovaniya>
5. [S.Z. Qozoqov O'zbekistondagi islohotlar sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy omillari. Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori \(PhD\) dissertatsiyasi. Toshkent-2023.](#)
6. Казаков, С. (2023). TADBIRKORLIK MADANIYATI INSTITUTSIONALLASHUVINING IJTIMOY JIHATLARI. *ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ*, 6(3).
7. Zokirjonovich, K. S. (2024). SOCIOLOGICAL CLASSIFICATION AND FACTORS OF ENTREPRENEURSHIP SUPPORT IN INTERNATIONAL PRACTICE. *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 2(1), 74-82.
8. Sadigjonovich, G. B., & Umaralievich, K. U. (2022). Socio-Philosophical Aspects of the Orientation of Young People to Entrepreneurial Activity. *Research Focus*, 1(4), 359-363.
9. Козоков, С. З. (2020). ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИГА ТАЪСИРИ. *Журнал Социальных Исследований*, 3(1).
10. Козоков, С. З. (2020). ЎЗБЕКИСТОНДА ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ. *Журнал Социальных Исследований*, 3(2).